



## **IBN AL ARABIY FALSAFASIDA “VAHDAT UL-VUJUD” KONSEPSIYASINING O’RNI**

**Sohibnazar Karimov,**  
*Samarqand iqtisodiyot va  
servis instituti professori,  
falsafa fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sharq tasavvufiy tafakkuri tarixida muhim o’rin tutgan mutafakkir Muhyiddin Ibn al Arabiyning “Vahdat ul-vujud” konsepsiyasining shakllanishi va mohiyati o’ziga xos uslubda yoritilgan. Ibn al Arabiyning ziddiyatli ilmiy hayoti va vahat ul-vujud konsepsiyasining naqshbandiya tariqati uchun asos bo’lib xizmat qilganligi haqida fikrlar bayon qilingan. Tasavvuf ta’limotidagi “Haqiqiy borliq Allohdir”, “O’lmaslaringizdan burun o’linglar”, “Bu olamning yaratilishidan maqsad” kabi Ibn Arabiyning g’oyalari har tomonlama yoritilishga harakat qilingan.

**Kalit so’zlar:** tariqat, “vahdat”, vujud, “shuhud”, fano, baqo, bilish, borliq, inson, vohid, hijob, taqvo, vojib, irfon.

**Аннотация.** В данной статье уникальным образом освещается формирование и сущность концепции «Вахдат уль-Вуджуд» мыслителя Мухиддина Ибн аль-Араби, сыгравшего важную роль в истории восточной мистической мысли. Противоречивая научная жизнь Ибн аль-Араби и концепция вахдат уль-вуджууда послужили основой секты Накибанди. Идеи Ибн Араби в суфизме, такие как «Истинное существование – Бог», «Умри, прежде чем станешь бессмертным», «Цель создания этого мира» пытались всячески осветить.

**Ключевые слова:** тарикат, «единство», существование, «шухуд», смерть, выживание, знание, существование, человек, единство, хиджаб, благочестие, обязанность, знание.

**Abstract.** In this article, the formation and essence of the concept of "Wahdat ul-Wujud" of the thinker Muhyiddin Ibn al-Arabi, who played an important role in the history of Eastern mystical thought, is covered in a unique way. The controversial scientific life of Ibn al-Arabi and the concept of wahat ul-wujud served as the basis for the Naqshbandi sect. The ideas of Ibn Arabi in Sufism, such as "True existence is God", "Die before you are immortal", "The purpose of the creation of this world" have been tried to be covered in every way.

**Key words:** tariqat, "unity", existence, "shuhud", death, survival, knowledge, existence, human, unity, hijab, piety, obligation, knowledge.

### **KIRISH**

Insoniyat tarixiy tafakkuri o’zini qurshab turgan olamni anglab yetishga intilib kelganligi bilan xarakterlanadi. Borliq haqidagi dastlabki bilimlar uzuq-yuluq va bir biriga zid bo’lgan bilimlar yg‘indisidan iborat bo’lib kelgan. Lekin insoniyatning intelektual salohiyati to‘plangan bilimlarni tartibga solishga sistemalashtirishga va ularni klassifikatsiya qilishga olib keldi. Natijada tasavvuf ta’limotida borliq haqida o’ziga xos konseptual yo‘nalish paydo bo’ldi va bu tushuncha tasavvufda vahdati-vujud, vahdati-shuhud va vahdati-mavjud nazaryalari sifatida yoritildi.

Islom dini islom olamida kuchli yagona mafkuraga aylangandan so‘ng Haq taoloning o’z xusnu, jamoli qudrat va sifatlarni namoyon etish istagini ifodalovchi



“vahdat ul-vujud” kuchli fikriy ta’limot sifatida paydo bo‘ldi. Vahdat ul-vujud lug‘aviy ma’nosи arabcha-jismoniy borliq- Sharq mamlakatlari. Markaziy Osiyo, Hindiston xalqlari falsafiy qarashlarida keng tarqalgan oqim. Vahdat ul-vujud vujudning birligi ma’nosini anglatib, Allohdan boshqa borliq yo‘qligini bilish shuuriga sohib bo‘lishdir. Vahdati vujud maslagiga ko‘ra, hamma narsa toq vujud bo‘lmish Allohning turli-tuman tajalliylari, zuhurlari, taxayyullari va ko‘rinishlaridan boshqa narsa emasdir. Vahdat ul- vujud mohiyati zavq ila kashf etilib, yashash yo‘li bilan bilinadi, mushohada etiladi.

Vahdat ul-vujud birlik va borliqning bir butunligini anglatuvchi va abadiy yagona Allohgina bor, deb hisoblovchi ta’limot. Bu ta’limotga ko‘ra, moddiy olam, narsalar dunyosi haqiqiy emas, haqiqat faqat Allohda mujassamlashgan, moddiy olam Allohning nuri shu’lasidir. Bu esa butun borliq vujud yagonadir degan ma’noni anglatib, Sharq islom panteizmiga asoslanadi.

Vahdat ul-vujud ta’limotini tushunishda “vujud” tushunchasi talqinini anglash muhim ahamiyatga ega. “Vujud” so‘zi arab tilidagi “vajd” so‘zidan olingan bo‘lib,- ishq va muhabbat, intilish ma’nolarini anglatuvchi surur va tajalliydir. Hujviriy “Vajdning mohiyatini izohlamoq imkonsizdir. Zero, vajd haqiqiy ko‘rish (kashf)dagi amaldurki, alamni qalam bilan tasvirlashning imkon yo‘q”, deydi.<sup>1</sup>

Demak, vujud- mavjudlik, borliq. Eng mukammal shakldagi vajd holi, Haqqa yetishish. Solik bashariy sifatlardan foniy bo‘lgach, haq vujudiga birlashadi Ibn al-Arabiyl talqinida esa, “vujud”ni “Borliq”, ”Alloh taoloni topmoq”, “Uning jamolini mushohada etmoq” ma’nolarida anglagan. Shunday ekan, Parvardigor vujud bilan sifatlangandir. Parvardigor vujudning aynan o‘zidir.... ya’ni, Allah mavjuddir va olamdagи bor narsa mavjud emas,<sup>2</sup> deydi Ibn Arabiy.

Bundan vujudga muhtoj bo‘lgan barcha narsalar alohida vujudlar emas, balki Mutlaq vujudga ta’lluqli ekan, degan xulosa chiqadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Biz e’tibor qaratayotgan Ibn Arabiyning vahdati ul vujud nazariyasi o‘zining qadimgi Yunonistonda Aflatun (mill.avv.427-347yy) Flutin (mill.avv. 270-204.yy) qarashlariga borib taqaladi. Platon butun dunyo haqiqiy borliqning, ya’ni (g‘oyalar dunyosining mahsuli), soyasidir<sup>3</sup> qaragan bo‘lsa Plutin haqiqatni bitta va birlikni butun borliqning asli va asosiy manbai deb tushunadi. Uningcha, barcha mavjudod ushbu birinchi mabda (boshlang‘ich joy, nuqtadan) sizib chiqib, nihoyatda unga qaytib boradi.<sup>4</sup>

<sup>1</sup>Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. 214-215-betlar.

<sup>2</sup>Ibn Arabiy “Al Futuhot ul-Makkiya”asarida. 3-jild.-S.429.

<sup>3</sup>Yo‘ldoshev S.,Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o‘rta asr G‘arbiy yevropa falsafasi. –T.:Sharq. 2003, 46-132 betlar.

<sup>4</sup>Abdulhakim Shar‘iy Juzjoniy. Tasavvuf va inson. T.: Adolat, 2001.-20-bet.



Tasavvuf tarixidan ma'lumki, vahdat g'oyasini birinchi bo'lib Boyazid Bistomiy ilgari surgan. Buning natijasida Bistomiy tasavvufga "sukur"(saxxushlik-behudlik) tushunchasini olib kirgan. Boyazid Bistomiying bu qarashlari Mansur Xalloj va Ibn Arabiy qarashlarga katta ta'sir ko'rsatgan. Chunki uning ta'limotiga ko'ra, inson zikr holatida o'zligini unutadi. Va Xudo ishqidan mast bo'lib (sukr-behudlik) ya'ni butun vujudini his-tuyg'u qamrab oladi, pirovardida u Xudoda pano yo'q bo'lib ketadi. Bunday holatni u fano (mavjudlikni yo'qotish) deb atab, ilk bor bu tushunchani tasavvufga kiritadi.

Tasavvuf tarixida birinchi bo'lib ushbu nazariyani, keng tarqatgan mutafakkir Ibn Arabiy (1165-1240yy)dir. U Alloho barcha mavjudodning, mo'min bandaning qalbi deb biladi va jahonda haqiqat voqeylekdan tashqari narsani ko'rmaydi, orif har bir narsani unda ko'radi, negaki, u butun narsalarni qamrab oladigan zarf(ichiga narsalar qo'yuvchi idish)dir deb ta'kidlaydi.<sup>5</sup>

### MUHOKAMA

Ibn Arabiy vahdatul-vujud falsafiy nazariyasini o'zining hos uslubi asosida izohlaydi. Ibn Arabiyning borliqqa oid asarlarining tasnifi ko'rsatadiki, uning borliqqa umumiyligi ta'rif berish bilan birga uning ko'rinishlari bo'lgan tabiat, inson, jamiyat va ma'naviy borliqni ham tahlil etgan.

Ibn Arabiy o'zining risolai vujudiya (vujud haqida risola) asarida borliqning umumiyligi masalalarini yoritgan bu kategoriyani yaxlit tizimli o'rgangan va shu masalaga oid qarashlarni eng mukammal tasvirlagan. Qizig'i shundaki, Ibn Arabiy risolani an'naviy tarzda Allohga hamd va payg'ambarga aytgandan so'ng asarni yozishdan maqsad payg'ambar allayhissalomning "Kim o'zini anglasa, Robbisini anglaydi" degan hadisning mazmun mohiyatini ochish ekanligini bayon qiladi. Bu esa Vahdoniyatdan oldin O'zidan o'zga hech bir oldinlik bo'lmasagan va fardoniyatdan keyin O'zidan o'zga hech bir keyinlik bo'lmasagan degan g'oyaga bo'ysindiriladi.

Ibn Arabiy borliqda Allohdan boshqa narslar mavjud emasligini har qanday borliq undan ekanligini shuning bilan birga uning o'zi hech bir narsada bo'lmasligini, uni faqat uni o'zi anglashini aytadi.

Ibn Arabiy borliq va yo'qlik masalasini tasavvufiy-irofniy nuqtai-nazardan tahlil etgan. Kishilar qadimdan o'zlarini qurshab turgan tabiat va jamiyat, inson va insoniyat haqida o'ylar ekan, atrofida sodir bo'lib turgan narsalar va hodislarni, o'zgarishlarni kuzatishgan. Shular asosida kishilarda mavjudlik, borliq va yo'qlik haqidagi tasavvurlar, qarashlari vujudga kelgan.

Umuman olganda Ibn al Arabiyning diniy, falsafiy dunyoqarashi ancha murakkab, chigal masala. Zero uning falsafiy, irofniy qarashlari islam dinidagi biron

<sup>5</sup>Abdulhakim Shar'iy Juzjoniy. Tasavvuf va inson. T.: Adolat, 2001.-20-bet.



bir fiqxiy va kalomiy mazhaab doirasiga sig‘maydi. Ayniqsa, uning vahdat ul vujud va ilohiy tajalliy nazariyalari iymon, nubuvvat va valoyat masalalariga oid qarashlari ham ahli sunna val-jamoa va hamshi’ya yo‘nalishidagi mazhabblar doirasida katta aqidaviy babs -munozaralar va ixtiloflarga sabab bo‘lgan. Hatto uning mazkur masalalarga oid qarashlari ahli sunna val-jamoa yo‘nalishidagi mazhabblarning ulamolari tomonidan tanqid qilingan.

Ibn al Arabiyning vahdati ul vujud haqidagi ta’limotlarini buyuk mutasavvuf allomalar Imom Fahr Roziy (544-604), “suhrovardiyy tariqatining asoschisi” Shahobiddin Suhrovardiyy (539-633), Abu Abdulloh Zikriyo Ibn Mahmud (605-682), Abdulloh Qoriy Bog‘dodiy (vafot 825) kabi yirik allomalar qo‘llab quvvatlagan bo‘lsa, eronlik mutafakkir Alovuddavla Sinnoniy (659-736) va boshqalar Shayx ul-Akbarning vahdat ul vujudiy qarashlari, jumladan, Haq taoloni “mutlaq vujud” deb atashini qoralagan.

Ibn al Arabiy islam tarxida boy ilmiy adabiy meros qoldirgan eng buyuk mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Abulvahhob Sha’roniy uning asarlar sonini 400 dan ortiq degan bo‘lsa, Abruhamon Jomiy o‘zining “Nafahot ul –uns” asarida ularning sonini 500 dan ortiq deb baholaydi. Ibn al Arabiydan boy ilmiy va adabiy meros qolgan va bu ma’naviy merosning katta bir qismi tasavvuf va irfon, kalom, falsafa, tavsir, tarix axloq va fiqh ilmlariga tegishli.

## NATIJALAR

Taniqli islomshunos olim A.Sh.Juzjoniyning Islom Buyuk enseklopediyasi Ibn al Arabiyni islam tarixida “Falsafiy irofe tizimi” yoki “irfoniy falsafa” yoki “Ilohiy irfoniy hikmat”ning eng buyuk asoschisi sifatida baho beradi. Va uni barcha davrlarda irfon sohasida eng buyuk mutafakkir deb hisoblaydi. Islom dunyosida bu kunga qadar bir nav uning tafakkuri ta’siri ostida bo‘lmagan hech mutafakkir, orifmijoz faylasuf topilmaydi <sup>6</sup>deyishida asos bor. Zero, islam falsafiy tafakkurining keyingi davrlarni Ibn al Arabiyning ta’limotisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ibn Arabiyning fikricha, “Uning hijobiy Uning vahdoniyatidir. Uning hijobidan o‘zga biron bir hijob Uni to‘solmas. Uning vujudi ham vahdoniyatidirki, bu vahdoniyati bilan U “kayfiyat” (“qanday”, “qanaqa”) ga sig‘masdan “satr” (“yashirin”) bo‘ladi. Uni uning o‘zidan o‘zga na payg‘ambari mursal, valiyikomil, na malaki mukarrab ko‘rolmas. Uning payg‘ambari uning o‘zidir, Uning rasuli uning o‘zidir. Uning risolati uning o‘zidir. Uning kalomi uning o‘zidir. U o‘zini o‘zi orqali biron vositasiz va har qanday sababsiz o‘ziga yuborgandir. Yuboruvchi, yuborilgan va yuboriluvchi

<sup>6</sup>Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy. Tasavvuf va inson. T.: Adolat, 2001.-21-bet.



orasida hech qanday tafovut yo‘qdir. “Sano harfining vujudi uning vujudidan o‘zga narsa emasdir. Uning sanosi ham nomi ham va nomlangani yo‘qdir”.<sup>7</sup>

Shuni ham ta’kidlash kerakki Ibn Arabiy borliqni tushuntirishda faqat o‘zining aytganlari to‘g‘risi ekanligi, o‘zidan oldingi tasavvufiy tariqatlarining o‘zliklarini anglashda tutgan yo‘llarini, hamda tushuntirgan usul va vositalarni inkor qiladi. Mutasavvuf tariqatlarda “fano”, “fanoning fanosi” kabi ibora va islohotlarni hatoligini ta’kidlab, ularni to‘g‘ri deb tushunish islomda eng katta gunohga olib keladi deb hisoblaydi.

Borliqni anglashda Ibn Arabiy ta’limotining bosh g‘oyasi o‘zlikni anglash hisoblanib, mavjudlikning har qanday belgilari inson bilan yaxlitlik kasb etadi, har qanday ko‘plik birlikni ifodalaydi. Birdan boshqa zot bor deyish gunoh ya’ni shirkdir. Demak, mutasaffuning fikricha borliqdagi jamiyki o‘zgarish va rivojlanish va ziddiyat insonda mavjuddir. ibn Arabiyning bu yerdagi buyuk xizmati shundaki, u moddiyat bilan ruhiyatni muloqatga kirta oldi. U shariat ortida tariqat turishini ko‘ra oldi va bu birlik inson ruhiy barqarorligining to‘liqligining asosidir. Bu asos uch birlikda e’tiqod, ishonch va aql birligida namoyon bo‘ladi. Ana shu birlik insonni Alloho anglashdek, komillik darajasiga ko‘taradi. Insonikomildan yuqori bir mukammal mavjudlik yo‘qdir. Bu dunyoda insonlar orasida kamolga yetishmaganlar hayvoniy notiq-ular faqat suratda insondirlar deydi.

Ibn Arabiyning bosh g‘oyasi bo‘lgan insonni o‘zini anglashdagi yaxlitlik ta’limotida neoplotanizmning ta’siri sezilib turadi. Chunki neoplatanizmning asosiy falsafiy mazmuni borliq iyerarxiyasining eng yuqori nuqtasi bo‘lgan Yaxlitlik g‘oyasi muhim rol o‘ynagan. Bu g‘oyaning asosida Platonning “Yaxlitlik-Aql-Jon” triadasi yotadi. Yaxlitlik barcha mohiyatlarning mohiyati bo‘lib, aqlni vujudga keltiradi. Aql (nus) jonni (petoxe vujudga keltiradi). Jon ikki ko‘rinishda mavjud: quyi jon va oliy jon. Quyi jon marteriyaga intilib yashaydi. Oliy jon esa xudolar tomonidan yaratiladi. Aql va jonning birgalikdagi sa’iy -harakati natijasida oliy jon materiya iskanjasidan xalos bo‘ladi. Umuman olganda vahdat ul vujud ta’limoti ko‘pgina Sharq shoir va mutafakkirlari ijodi uchun ma’naviy ozuqa bo‘lib xizmat qilgan.

Ibn Arabiy ta’limoti bo‘yicha borliq Haqning o‘z-o‘zidan mavjud kuchi. Xudoning abadiyligi borliqning abadiyligini sharh qiladi. Bunga esa o‘z navbatida faylasuflarning borliqning “al-aql ul - avval” (“ibtido aql”) dan vujudga kelganligini rad etadi.

Ibn Arabiy ta’limotida “Haq” (Alloh) istilohi turli tariflar, tavsirlar va talqinlar bilan bayon etiladi. U gohida “Haq”ni “Halq” (yaratilgan mavjudotlar) bilan ayni bir

<sup>7</sup>Boltayev Abdurahim Amanovich. “Muhyiddin ibn Arabiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari mavzusidagi 09.00.03- Falsafa tarixi mutahassisligi bo‘yicha falsafa fanlari doktori (DSc)dissertatsiyasi. Buxoro, 2023.70-71 betlar.



narsa deb tushuntirsa, ba'zida Haqning xalq darajasiga tanazzul etishini nazarda tutadi.

Ibn Arabiy fikricha, “Allohnning sherigi yo‘qdir”, tengi bo‘lmas va Unga Bas kelib bo‘lmas. Kimki, biror narsani Alloh bilan va Allohda ko‘rsa, o‘sha narsa Allohnning Ruhubiyatiga (Rabligiga) muhtojdir. U o‘sha narsani ham Allohnning rububiyatiga mahtojlikka sherik qilgandir. Kimki, biror narsani Alloh bilan o‘z-o‘zidan bor desa, yoki U bilan qoim desa, yoki o‘z vujudidan yoki fanosidan foniy desa u o‘zini anglashning haddidan bahramand bo‘lmagan. Kimki, Undan o‘zga mavjudlik bor desa, o‘zicha bor desa, o‘z fanosida foniy bo‘ladi desa va fanoni fanoga bog‘lasa, bu shirk ustiga shirkdir. U uzini anglamagandir, balki u mushrikdir. U na Allohn ni va na o‘zini tanigandir.<sup>8</sup>

Tasavvuf ta’limotida haqiqiy borliq bu Allohdир. U olamni tashkil etadi. U bor va baqodir. Biz yashab turgan moddiy olam ko‘rinadigan olamdir. U aslida mustaqil maqomga ega emas, chunki u aniq maqsadni ko‘zlab yaratilgan. Bu odamning yaratilishidan maqsad Allohnning bemisl qudratidan darak berish, uning abadiy ekanligidan ogohlantirib turishdir. Ibn Arabiyning ta’kidlashicha olamning paydo bo‘lishi Alloh o‘z mohiyatini ko‘rish uchun o‘zini oshkor etishdir. Buning sababi “yorug‘lik g‘ami” Alloh o‘zini tanitishni, ismlarni bildirishni hoxlagan va olamni yaratishdan maqsad shudir deb ta’kidlaydi.

Ibn Arabiy nazarida inson bu ijodning yuksak timsolidir, chunki hech bir mavjudodga ato qilinmagan ne’matlar – sezgi a’zolari, aql-zakovat, zukkolik in’om etilgan. Ular orqali Yaratganning mohiyati xayru ehsoni, karami, mislsiz ne’matlari inson ruhiyatiga nur kabi singib boradi.

Ibn Arabiyning baqo va fano tushunchasiga ko‘ra, narigi dunyo abadiy, bu dunyo esa foniy dunyodir. Inson abadiy dunyo umidida yashamog‘i, bu dunyo ikr-chikirlariga o‘ralashib qolmasligi, g‘aflat va g‘ofillikni tark etishi, vaqtincha huzur halovatlar, hoyu- havaslar ilinjida, insonni yomonlikdan zavqlantiradigan nafs-nafsiammora tuzog‘iga tushib qolmasdan Alloh amriga bo‘ysinishi lozim bo‘ladi. Fano bo‘lish iborasi, aslida soliklarning o‘tkinchi hayot tashvishlaridan ozod bo‘lishni, ma’naviy aqliy poklanishni, ilohiy amrni to‘la-to‘kis va bajni-dil bajarishni bildiradi.

Ibn Arabiy “o‘lmaslaringizdan burun o‘linglar, “men naflar orqali menga yaqinlashayotgan bandani sevaman. Sevdimmi uning qulog‘iga, ko‘ziga va qo‘liga aylanaman....”, “albatta mo‘min mo‘minning oynasidir”<sup>9</sup> kabi hadislarni ham keltirib ularda Allohdan o‘zga borliq yoki vujud yo‘qligiga ishora ekanligi bayon qilingan.

<sup>8</sup>Boltayev Abdurahim Amanovich. “Muhyiddin ibn Arabiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari mavzusidagi 09.00.03- Falsafa tarixi mutahassisligi bo‘yicha falsafa fanlari doktori (DSc)dissertatsiyasi. Buxoro, 2023.76 bet.

<sup>9</sup>Davlatov Olim. Ibn al Arabiy va uning vahdat ul-vujud falsafasi. –Toshkent. Fan, 2008, 48-bet.



## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Ibn Arabiyning “vahdat ul vujud” nazariyasi shu qadar katta qiziqishlarga sabab bo‘lar ediki, u to‘g‘risidagi munozaralar, tortishuvlar arab diyoridagi g‘oya tushunchalar o‘rtasida qanday bo‘lgan bo‘lsa, Markaziy Osiyodagi ulamo va mutasavvuf-sufiylar orasida ham shunday bo‘ldi. Shu bilan birgalikda naqshbandiya tariqati namoyondalari Xoja Muhammad Porso Buxoriy, Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy va Mahdumiy A’zam Dahbidiylar tomonidan Ibn al Arabiyning “vahdat ul-vujud falsafasi”dagi irfoniy g‘oyalarning naqshbandiyada tasavvufiy ta’limot darajasiga ko‘tarishga harakat qiladilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhyiddin Ibn al Arabiy. Al Futuhot ul-Makkiya. 4-jild-Bayrut. “Dar sodir”.
2. Risolai Qudsiya Xoja Porso. –Tehron, 354.
3. Komilov N. Tasavvuf. Tavhid asrori.-Toshkent. Yozuvchi. 1999.
4. Yo‘ldoshev S.,Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o‘rta asr G‘arbiy yevropa falsafasi. –T.:Sharq. 2003, 46-132 betlar.
5. Abdulhakim Shar‘iy Juzjoni. Tasavvuf va inson. T.: Adolat, 2001.-20-bet.
6. Boltayev Abdurahim Amanovich. “Muhyiddin ibn Arabiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari mavzusidagi 09.00.03- Falsafa tarixi mutahassisligi bo‘yicha falsafa fanlari doktori (DSc)dissertatsiyasi. Buxoro, 2023.70-71 betlar.
7. Davlatov Olim. Ibn al Arabiy va uning vahdat ul-vujud falsafasi. –Toshkent. Fan, 2008, 48-bet.
8. Shayx Najmuddin Kubro. Tasavvufiy hayot. 214-215-betlar.
9. Ibn Arabiy “Al Futuhot ul-Makkiya”asarida. 3-jild.-S.429.